

SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Iminov Farhod Tohirjonovich
Toshkent moliya instituti, magistrant
Karimov Sardor Shuhratjon o‘g‘li

Annotatsiya. So‘nggi paytlarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mamlakatimizda investitsiya muhitini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, chunki bu muhit iqtisodiyotni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada sug‘urta faoliyatining investitsion muhit samaradorligiga ta’sir etuvchi jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada milliy sug‘urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish, jahon tajribasini hisobga olgan holda investitsiya faoliyati sug‘urta kompaniyalarining asosiy daromadlarini ta’minlashi kerakligi, bu esa sug‘urta kompaniyalarining asosiy daromadlarini ta’minlanishida o‘z kapitalini muntazam ravishda oshirish va moliyaviy ahvolini yaxshilash, milliy sug‘urta bozorini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish va milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobil ta’sir ko‘rsatishning muhim yo‘li kabilar yoritib berilgan.

Annotatsiya. В последнее время правительство Республики Узбекистан уделяет особое внимание развитию инвестиционной среды в нашей стране, ведь эта среда играет большую роль в развитии экономики. В данной статье рассматриваются аспекты страховой деятельности, влияющие на эффективность инвестиционной среды. Также в статье указано, что повышение эффективности инвестиционной деятельности национальных страховых компаний, с учетом мирового опыта, инвестиционная деятельность должна обеспечивать основной доход страховых организаций, что означает регулярное увеличение собственного капитала для обеспечения основного дохода страховых компаний. А также важный способ улучшить финансовое положение, создать возможность для развития национального страхового рынка и оказать положительное влияние на развитие национальной экономики.

Annotation. Recently, the government of the Republic of Uzbekistan has been paying special attention to the development of the investment environment in our country, because this environment plays a big role in the development of the economy. This article discusses aspects of insurance activities that affect the effectiveness of the investment environment. The article also states that increasing the efficiency of the investment activities of national insurance companies, taking into account world experience, investment activities should provide the main income of insurance organizations, which means a regular increase in equity capital to ensure the main income of insurance

companies. And also an important way to improve the financial situation, create an opportunity for the development of the national insurance market and have a positive impact on the development of the national economy.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari, sug‘urta kompaniyalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari sug‘urta zaxiralarini ko‘paytirish, sug‘urta kompaniyalari faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini izlashni taqozo etmoqda. Cheklangan resurslar sharoitida sug‘urta kompaniyalari kapitalini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri bu investitsion faoliyatdir. Mamlakatimizda sug‘urta tizimini rivojlantirish, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarga yaratilgan xuquqiy asos va kafolatlar tufayli ularning iqtisodiyotimizdagi o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobjiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart” [3], deya ta’kidlab, investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim ahamiyatga egaligi va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etadi.

Sug‘urta tashkilotlari investitsiya kapitalining eng katta manbai hisoblanadi. Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda ular kapital bozorida mablag‘larning harakatini amalga oshiradilar. Sug‘urtalovchilar sug‘urtalanuvchilardan oladigan tarqoq kichik badallar doimiy ravishda to‘ldirilib turiladigan ulkan sug‘urta fondiga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, sug‘urtalovchi passiv pul oqimlarini faol kapital oqimiga aylantiradi. Zaxiralarning hajmi va mablag‘larini joylashtirish shartlari sug‘urta kompaniyalarini eng qudratli moliya-kredit institutlariga aylantirganligi sababli, sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta faoliyati iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida e’tirof etilgan.

Investitsion daromad sug‘urtalovchi uchun qo‘sishimcha foyda manbai hisoblanadi. Natijada, tarif stavkasi tarkibiga kiritilgan daromad stavkasi pasayadi va tarif ham shu miqdorga kamayadi, buning natijasida bundan sug‘urtalovchilar ham, sug‘urtalanuvchilar ham birdek manfaatdordirlar.

Sug‘urta biznesi sug‘urta kompaniyalarining investitsion faolligi bozorning turli sohalarida shakllantirilish sharti bilan muvaffaqiyatli ishlaydi. Sug‘urtalovchilar doimo mavjud bozor kon‘yunkturasiga bog‘liq. Bu sug‘urtalovchini malakali, eng muhimi, oqilona investitsiya siyosatini yuritishga majbur qiladi. Shunga ko‘ra, ishonchlilik, rentabellik, diversifikatsiya va likvidlik sug‘urta tashkilotining samarali investitsiya siyosatining asosiy mezonlari hisoblanadi. Shunday qilib, ko‘tarilgan mavzu zamonaviy dinamik rivojlanayotgan pul va moliya bozorini hisobga olgan holda sug‘urta tashkilotlari uchun doimo dolzarbdir.

Rivojlangan mamlakatlarda sug‘urta sektori o‘z iqtisodiyotiga sarmoya kiritishning uchta yirik manbalaridan biri hisoblanadi. Bular davlat, pensiya jamg‘armalari va sug‘urta kompaniyalari. Banklar bu qatorda ko‘rsatilmagan. Shu bois kelajakda iqtisodiyotga uzoq muddatli xususiy investitsiyalarning mustaqil manbasini olishimiz uchun ichki sug‘urta biznesini rivojlantirish biz uchun nihoyatda muhim. Sug‘urta bozorining katta sig‘imi har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun ne’matdir, chunki u yo‘qotishlarni moliyalashtirish manbai sifatida ham, ulkan investitsiya resurslari manbai sifatida ham barqarorlashtiruvchi rol o‘ynaydi.

2016-2019 yillarda sug‘urta mukofotlarining o‘sishi 2019 yilga nisbatan o‘rtacha 150 foizni, 2020 yilda esa 94 foizni tashkil etdi. Bu pasayishning asosiy sabablari sifatida karantin qoidalarining joriy etilgani, ayrim kompaniyalarda masofaviy ishlashning yo‘lga qo‘yilmaganligi va karantin davrida uy xo‘jaliklari daromadining kamaygani sabab bo‘ldi. Sug‘urta mukofoti 2021 yilda 2020 yilga nisbatan +68,6% ga o‘sishi, 2022 yilning 3 oylik ko‘rsatkichida esa o‘tgan yilning shu choragiga nisbatan +93,4% ga o‘sishi, va bu o‘z o‘zidan karantin talablari yumshatilishi bilan bog‘liqligi namoyonida kuzatildi.

2016 yildan 2020 yilgacha investitsiya faolligi 287 foizga oshdi. Shu bilan birga, depozitlar 4,6 barobar, ko‘chmas mulk - 6,2 barobar, kreditlar 5,8 barobarni tashkil etdi. 2021 yilda jami investitsiyalar hajmi 3746,7 mlrd.so‘mni, 2022 yilning birinchi choragida esa 3927,7 mlrd. so‘mni²² tashkil etdi. Biroq, sug‘urta bozorining aktivlari va kapitalining o‘sishi ancha yaxshi natijalarni ko‘rsatishi mumkin va bunga sug‘urta bozorining uchta asosiy muammosi to‘sqinlik qiladi:

1. Sug‘urta kompaniyalariga sug‘urta zaxiralarini oshirishga imkon bermaydigan yuqori sotib olish xarajatlari (komissiya to‘lovleri). Bizningcha, bu ixtiyoriy sug‘urta bozoridagi noqonuniy holatlarning yuqori darajasi bilan bog‘liq.
2. Sug‘urtaning ixtiyoriy sinflari uchun transchegaraviy qayta sug‘urtalashning o‘ta yuqori darajasi. Bir tomondan, qayta sug‘urtalash sohasidagi muammolar chet elda mablag‘larning qisman nazoratsiz olib qo‘yilishi bilan bog‘liq. Boshqa tomondan, qayta sug‘urtalash cheklangan bo‘lsa, sug‘urta kompaniyalarining o‘z kapitallashuvining yo‘qligi va ularning katta risklarni o‘z zimmasiga olish qobiliyatiga ega emasligi ta’sir qiladi.
3. Bank oynalari orqali sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta bozorida raqobatning deyarli yo‘qligi.

Banklar va moliyaviy-sanoat guruhlari sug‘urta kompaniyalarining sho‘ba korxonalarini tashkil etib, shu orqali boshqa sug‘urta kompaniyalarini o‘z mijozlari bilan bog‘lash imkoniyatidan mahrum qilib, mijoz o‘z guruhida imkon qadar o‘zining pullarini qoldirishi uchun faqat o‘z iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlaydi. Agar raqobat mavjud bo‘lsa,

²² <https://imda.uz/oz/2022-yil-1-chorak/> Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi saytidan

bu mutlaqo oqilona va oqlangan harakat. U yo‘q bo‘lganda sug‘urta sohasining sifat jihatidan rivojlanishiga katta zarar yetkazadi.

Yuqoridagi muammolar va ularning dolzarbligiga qaramay, O‘zbekiston Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligiga, sug‘urta bozorini tartibga solish va ichki qonunchilikka so‘nggi o‘zgartirishlar kiritish chora tadbirlarini, xususan, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi [1] Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-sonli [2] Qarorning qabul qilinishi, sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuviga qo‘yiladigan talablar oshirilishi, sug‘urta vositachiligi tamoyillari sezilarli darajada qayta ko‘rib chiqilganligi shular jumlasidandir. O‘ylaymizki, bu chora-tadbirlarning barchasi O‘zbekiston moliya bozorining to‘laqonli ishtirokchilari sifatida sug‘urta kompaniyalarining uzoq muddatli o‘sishi, konsentratsiyasi va shaffofligini oshirishga olib keladi.

Sug‘urtalovchining va qayta sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi nizomga muvofiq sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyati ob’ektlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog‘ozlari;
- bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);
- ko‘char va ko‘chmas multk;
- yuridik shaxslarning ustav kapitalidagi aksiyadorlik hissasi;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariiga muvofiq qimmatli qog‘ozlar;
- lizing tashkilotlariga kreditlar (moliyaviy yordam);
- qonun hujjalariiga zid bo‘lmagan boshqa investitsiya faoliyati ob’ektlari.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minalash maqsadida sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) o‘z aktivlarini to‘lovilik, likvidlik, diversifikatsiya va rentabellik tamoyillari asosida joylashtirishi shart.

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy shartlarga rioya qilishi kerak:

1. investitsiyalar va tegishli risklarni malakali boshqarish;
2. axborotning shaffofligi va maxfiyligini ta’minalash.

1. Investitsiyalar va ular bilan bog‘liq risklarni malakali boshqarish sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan:

- sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) investitsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatadigan investitsiya siyosatini tasdiqlash;
- investitsiya ob’ektlarini tahlil qilish va olingan rentabellikni davriy baholash va boshqalar.

2. Axborotning oshkoraliqi va maxfiyligini ta’minalash quyidagilar tomonidan amalga oshiriladi:

- qonun hujjatlari talablariga muvofiq axborotni oshkor qilish;
- kiritilgan investitsiyalar to‘g‘risida ta’sischilarga yillik hisoboti.

1-jadval

Sug‘urta kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladigan asosiy investitsiya talablari²³

Aktiv turi	Chegar asi	Talablari
Boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitaliga	50%	Sug‘urtalovchining o‘z mablag‘lari manbalaridan
Bitta yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushli ishtiroki	30%	Ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalidan
Ko‘chmas mulk	50%	Bir yer uchastkasi yoki ko‘chmas mulk uchun sug‘urtalovchining aktivlaridan
Bank depoziti (depozit)	40%	Sug‘urtalovchining aktivlaridan
Kredit tashkilotlariga, umumiy summasi	30%	Sug‘urtalovchining aktivlaridan
Aktivlarni aloqador shaxslarga joylashtirish	15%	Sug‘urtalovchining ustav kapitalidan
Ta’sischilarga, aktsiyadorlarga, xodimlarga kreditlar berish	10%	Sug‘urtalovchining ustav kapitalidan
Kreditlarni jalb qilish (moliyaviy yordam)	30%	Sug‘urtalovchining o‘z mablag‘lari manbalaridan
Sug‘urtalovchi joriy hisobvaraqlarda va boshqa bank hisobvaraqlarida pul mablag‘lariga ega bo‘lishi shart	3%	O‘tgan 12 oy uchun hisoblangan sug‘urta to‘lovlarini summasidan

Kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya siyosatiga muvofiq, barcha xodimlar kompaniyaning kapital va likvid resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish uchun javobgar bo‘lishlari shart. Barcha xodimlarga ushbu resurslarni joylashtirish va ulardan foydalanish samaradorligi va samaradorligini oshirish bo‘yicha strategiyalarni taklif qilish tavsiya etiladi.

- Birinchi mudofaa chizig‘i (= “Moliya”) bu kompaniyaning investitsiya portfelini saqlash va samarali boshqarish, samarali nazoratni ishlab chiqish va amalga oshirish,

²³ Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 12 mayda ro‘yxatga olingan. Ro‘yxatga olish raqami 1806.

kredit risklarini boshqarish, shu jumladan kontragentning qarzlarini to‘lamaslik xavfi va diversifikatsiya qilishdir.

- Ikkinci mudofaa chizig‘i (= “Xavflarni boshqarish”) investitsiya portfeli va risk profilining monitoringi, shu jumladan rivojlanish xavfi, investitsiya rejasini tahlil qilish va nazorat qilish va nazoratning ishlashi, ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish.

- Uchinchi himoya chizig‘i (= Ichki audit). Ichki audit birinchi mudofaa chizig‘i orqali amalga oshirilgan nazorat va Ikkinci Mudofaa liniyasi talablariga rioya etilishi ustidan nazoratning samaradorligini mustaqil ravishda ko‘rib chiqadi va shubha ostiga oladi.

Tegishli vaqtida ichki audit funktsiyasi bankning ichki nazorat muhitida bartaraf etilishi kerak bo‘lgan zaifliklar mavjudligini baholaydi. Quyida sug‘urta kompaniyalari misolida investitsiya rejasiga kiritilgan asosiy tamoyillar keltirilgan:

- Omonatlar faqat Investitsiya rejasi bilan tasdiqlangan muassasalarda saqlanishi kerak;
- Joylashtirish faqat qabul qiluvchi bank yoki muassasa normativ talablarga rioya qilgan taqdirdagina amalga oshirilishi kerak, bu esa prudensial ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlanadi;
- Sotib olingan barcha barqaror daromadli qimmatli qog‘ozlar mahalliy kredit reytingiga ega bo‘lishi kerak (agar mavjud bo‘lsa);
- Sotib olingan barcha xorijiy qimmatli qog‘ozlar kamida bitta tan olingan kredit reyting agentligining xalqaro kredit reytingiga ega bo‘lishi kerak. Minimal qabul qilinadigan xalqaro reyting - BBB;
- Qabul qiluvchi bank yoki muassasada jiddiy obro‘-e’tibor yoki huquqiy muammolar bo‘lmasa yoki kompaniyaning investitsiya portfeliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday muammoli yoki bahsli aktiv operatsiyalarida ishtirok etmasa, joylashtirish amalga oshiriladi.

Kompaniyaning investitsiya rejasi kamida quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Asosiy taxminlar va asosiy fikrlar;
2. Kapital va likvidlik talablari;
3. Kutilayotgan rentabellik;
4. Davomiyligi, daromadliligi va riski bo‘yicha guruhlangan aktivlar sinfi bo‘yicha maqsadli taqsimotlar;
5. Amaldagi qonunlar va me’yoriy hujjatlarga muvofiqligini tasdiqlash.

Sug‘urta xizmatlari sifatini oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni 3 guruhga bo‘lish tavsiya etiladi: mehnat resurslariga investitsiyalar; infratuzilmaga investitsiyalar; texnologiya va jarayonlarga investitsiyalar. Sug‘urta kompaniyalarining mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan muhim xususiyat shundaki, aksariyat hollarda

mavjud tarkibiy bo‘linmalarda maksimal ijobiy samaraga erishish bir qator ob’ektiv cheklovlari bilan to’sqinlik qiladi, ya’ni:

- xodimlarni qayta tayyorlash xodimlarning bir qismining ish jarayonidan ajralib ketishiga olib keladi, bu esa ishchilarning qolgan qismiga yukni oshiradi va shunga mos ravishda xizmatlar sifatiga salbiy ta’sir qiladi;

- savdo bo‘limlari xodimlarining malakasini oshirish va qayta o‘qishi hisobiga ularning samaradorligini oshirish, savdo hajmining oshishiga olib keladi, lekin sug‘urta hodisalarini hal qilish bo‘limlarida ham samaradorlikni mos ravishda oshirishni talab qiladi;

- xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish natijasida mijozlarning sodiqligining o‘sishi keljakda namoyon bo‘ladi, chunki aksariyat sug‘urta shartnomalari uzoq muddatga (odatda bir yilga) tuziladi va amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning ta’siri mijozlar tomonidan aksariyat hollarda faqat sug‘urtalovchi bilan bevosita bog‘langanda seziladi;

- xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, sug‘urtalovchining idora ishlarini qayta tashkil etish va mavjud ofisda IT infratuzilmasini modernizatsiya qilish ko‘p hollarda vaqtini izchil taqsimlashni va shunga mos ravishda maksimal samaradorlikka erishish uchun vaqtini kechiktirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
4. Кугушева Т.В., Кугушев О.В. Страховой бизнес-процесс национальных страховых компаний: сущность, особенности.// Журнал Экономика. Управление. Финансы 2/2016.
5. Т.В. Пахомова, И.В. Смагина, И.И. Сергеева Моделирование бизнес-процессов страховой деятельности. // «Вестник ОрелГИЭТ», 2015, №2(32).
6. Адамчук Н.Г. Мировой рынок страховых услуг в условиях глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д.э.н.-М.: -2005. - с.56.
7. Бажанов Г.С. Инвестиционные операции при размещении страховых резервов // Сборник научных трудов профессорско-преподавательского состава, молодых ученых и студентов / РГЭУ (РИНХ) – Вып. 17. Ростов н/Д – 2011.
8. Бажанов Г.С. Инвестиционные операции при размещении собственных средств страховых организаций // Вестник РГЭУ (РИНХ)- Ростов н/Д, 2011- №33 март.

9. Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 12 mayda ro‘yxatga olingan. Ro‘yxatga olish raqami 1806.

10. Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 15 dekabrda ro‘yxatdan o‘tgan 1882-son.

11. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

12. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti.

13. www.znay.ru - Elektron kutubxona.

14. www.saipro.uz – “Saipro” reyting agentligining rasmiy sayti.

15. imda.uz - Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi sayti